

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|   |     |
|---|-----|
| O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....  | 332 |
| <b>U.N.Olimov</b>   |     |
| Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi .....                         | 336 |
| <b>M.Q.Tolibboyev</b>   |     |
| O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analarga doir mulohazalar .....  | 340 |
| <b>X.S.Jumanazarov</b>  |     |
| Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....   | 346 |
| <b>Sh.N.Jo'rayev</b>  |     |
| Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rne.....   | 351 |
| <b>O.M.Normatov</b>   |     |
| O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....   | 356 |
| <b>D.G'.Mirzayev</b>  |     |
| "Turkiston viloyatining gazetasi" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili .....  | 361 |
| <b>A.O.Toirov</b>   |     |
| Anushteginilar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....   | 369 |
| <b>P.A.Nabiyev</b>  |     |
| "Farg'ona vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)" ..... | 373 |
| <b>A.A.Mamadjanov</b>   |     |
| Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili .....   | 378 |
| <b>P.A.Арслонзода</b>   |     |
| Тасвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айни .....  | 382 |

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

|  |     |
|--|-----|
| <b>A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova</b>   |     |
| Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir.....                                 | 389 |
| <b>Z.J.Pardayeva</b>   |     |
| Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman .....   | 393 |
| <b>H.Jo'rayev</b>  |     |
| Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rne.....                     | 401 |
| <b>K.A.Jamahmatov</b>  |     |
| Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi ..... | 404 |
| <b>X.Jo'rayev, M.Ismoilova</b>   |     |
| Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi .....  | 410 |
| <b>I.I.Rustamova</b>   |     |
| Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....              | 413 |
| <b>M.A.Jo'rayeva</b>   |     |
| Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti .....                       | 417 |
| <b>M.Islomova</b>  |     |
| Taqlid va Tasvir .....   | 421 |
| <b>D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov</b>  |     |
| Isajon Sulton hikoyalarda shamol timsoli.....                                      | 424 |
| <b>X.T.Мирзаев</b>   |     |
| Талқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Фиёсиддин .....      | 428 |
| <b>N.Q.Bo'riyeva</b>   |     |
| J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....               | 433 |
| <b>M.Sh.Dehqonova</b>  |     |
| Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....                             | 440 |
| <b>G.A.Mashrapova</b>  |     |
| Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....    | 445 |
| <b>Q.V.Yo'lchiyev</b>  |     |
| Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili .....                   | 449 |
| <b>B.N.Isakova</b>   |     |
| Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati .....                         | 456 |



UO'K: 821.512.133

**MUSTAQILLIK DAVRI DRAMATURGIYASI VA ADABIY TANQID****ДРАМАТУРГИЯ И ЛИТЕРАТУРНАЯ КРИТИКА ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ****DRAMA AND LITERARY CRITICISM OF THE INDEPENDENCE PERIOD****Dehqonova Maxsuma Shavkatovna**

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

Maqolada mustaqillik davrida dramaturgiyaning adabiy tanqidchilikda o'rganilishi, sohadagi o'zgarishlar, yozuvchilar ijodiy imkoniyati kengayganligi hamda uning dramaturgiyaning rivojiga turtki bo'lganligi haqida mulohazalar berilgan. Mustaqillikdan keyingi yillar adabiyotshunoslikning barcha sohalarida bo'lgani kabi, dramaturgiya bo'yicha olib borilgan qator tadqiqotlar, xususan, jadid adabiyoti namoyandalarning dramaturgiyaga qo'shgan hissasi va bu sohaning taraqqiyotidagi o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Bu davrda dramalarda o'zbek xalqining milliyligi, urf-odatlarini, marosimlar bilan bog'liq voqealar keltirilganligi va mavzular turfa xilligi ortganligi qayd etiladi.

**Abstract**

The article examines the study of drama in literary criticism during the period of independence, changes in the Soga, the expansion of creative possibilities of writers, as well as how it stimulated the development of drama. In the years after independence, as in all fields of literary science, a number of studies on drama were conducted with a special focus on the contribution of Jadid literary figures to drama and its place in the development of this field. During this period, the dramas cite events related to the nationality, customs, and rituals of the Uzbek people, and an increase in the diversity of topics is noted.

**Аннотация**

В статье рассматривается изучение драмы в литературной критике в период независимости, изменения в Сога, расширение творческих возможностей писателей, а также то, как она стимулировала развитие драмы. Годы после обретения независимости как и во всех областях литературной науки, был проведен ряд исследований по драматургии с особым акцентом на вклад деятелей литературы джадидов в драматургию и ее место в развитии этой области. В этот период в драмах цитируются события, связанные с национальностью, обычаями, обрядами узбекского народа, отмечается увеличение разнообразия тем.

**Kalit so'zlar:** mustaqillik davri, dramaturgiya, adabiy tanqidchilik, dramaturgiya rivoji, adabiyotshunoslik, jadid adabiyoti

**Key words:** period of independence, dramaturgy, literary criticism, development of dramaturgy, literary studies, modern literature

**Ключевые слова:** период независимости, драматургия, литературная критика, развитие драматургии, литературоведение, современная литература

**KIRISH**

Mustaqillik yillarida dramaturgiya janri tez suratlarda rivojlandi. Xalq tafakkuridagi o'zgarishlar, yozuvchilar ijodiy imkoniyati kengayganligi dramaturgiyaning ham rivojiga turtki bo'ldi. Erkinlik dramaturgiya mavzularining rang-barang bo'lishiga, son va sifat jihatidan olg'a qadam bosishiga imkoniyat berdi. Istiqlol g'oyasi ta'sirida zamonaviy ruhdagi dramalar yaratildi. Odil Yoqubovning "Bir koshona sirlari", Usmon Azimning "Bir qadam yo'l", Erkin Samandarning "Arabmuhammad Bahodirxon", Abdulla A'zamning "Dugohi Husayniy", "Jek London hikoyasidan so'ng" kabi dramalari mustaqillik yillari dramaturgiyasini boyitdi. Shuningdek, mustaqillikning o'n yilligi davrida A.Oripovning "Sohibqiron", Xushid Davronning "Bobirshoh", Usmon Azimning "Kunduzsiz kechalar", B.Ismoilovning "Behbudiy" kabi dramalari yaratilib, dramalarda shaxs muammosi, ijtimoiy-psixologik mavzular sintezi ko'zga tashlandi. Umuman olganda, bu asarlar dramaturgiyaga yirik asarlar sifatida kirib keldi: "O'zbek adabiyoti XX asrning 90-yillarigacha mustamlaka sharoitlarini boshdan kechirdi. Istibdod faqat ijtimoiy-siyosiy hayotdagina emas,

## ADABIYOTSHUNOSLIK

madaniy-adabiy muhitda ham hukm surdi. Shunga qaramay, mavjud ayrim sharoitlarning hayotiy ta'siri badiiy adabiyotning ichki qonuniyatlarini to'g'ri va barakali idrok etish hamda adiblar iste'dodining siyosat iskanjasida, zug'um va zo'rvonlik doirasida qolib ketmay, milliy va umumbashariy yo'nalishlardagi tinimsiz izlanishlari deyarli barcha janrdagi asarlar misolida o'zining ijobiy samaralarini berdi. Adabiy tanqid ham shu jarayonlarni boshdan o'tkazdi" [1,371].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mustaqillikdan keyingi yillar adabiyotshunoslikning barcha sohalarida bo'lgani kabi, dramaturgiyaning o'rganilishi yuzasidan ham qator tadqiqotlar olib borildi. Xususan, Abdurauf Fitrat dramalari o'rganilib, uning dramaturgiyaga qo'shgan hissasi va bu sohaning taraqqiyotidagi o'rniga alohida e'tibor qaratildi. Dramashunos Hafiz Abdusamatovning "Shoshma, quyosh" nomli monografiyasi ham mustaqillik yillari dramaturgiya sohasida olib borilgan ilmiy yutuqlardan biridir. Tadqiqotda O'lmas Umarbekovning dramaturgiya sohasidagi ijodiy faoliyati chuqur tahlil qilingan. Yozuvchining "Komissiya", "Qiyomat qarz", "Shoshma, quyosh", "Kuzning birinchi kuni", "Kurort" kabi asarlarida xarakter, konflikt, syujet, kompozitsiya, til xususiyatlari o'rganilgan. Yozuvchining milliy dramaturgiya rivojiga qo'shgan katta hissasi e'tirof etilgan. Olimning fikricha, keksa avlodning dramaturgiya tarixi va taraqqiyoti davrida ayrim kamchilik va xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa-da, u orqali o'z davri qiyofasini yaratib berganlar hamda bu borada erishgan yutuqlar keyingi milliy dramaturgiyaning uchun tamal toshi vazifasini o'tagan. Shunga qaramay, milliy dramaturgiya nisbatan oqsoq ekanligini, jamiyatdagi voqealarni yoritishda ortda qolayotganligini qayd etadi. Haqiqatan, adabiyotshunoslikda nasr, lirika, dramaturgiya sohalarining tarixi, rivoji, o'rganilishi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, dramaturgiyaning ikki sohadan ortda qolgani haqiqat. Buning bosh sabablaridan biri o'zbek xalqining nasr va nazmga qiziqishi ustunligida ko'rilsa, ikkinchisi esa she'riyat va nasrda ijod qiluvchi shoir va yozuvchilarning dramaturglardan ko'ra ancha salmog'i balandligidadir. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodidan o'sib chiqqan o'zbek adabiyoti tarixini kuzatadigan bo'lsak, dramaturgiya milliy adabiyotimizga XX asrlarda kirib keldi. To'g'ri, uning ba'zi ko'rinishlari, ba'zi unsurlari adabiyotimizda uchraydi. Ammo u o'zbek xalqining azaliy orzulari va kelajagini o'zida mujassam etgan nasr va nazmdek qon-qonimizga singib ketgan emas. Olimning fikricha, 60-70-yillarda dramaturgiyada oz bo'lsa-da, rivojlanish sezildi. Bu rivojlanishga O'lmas Umarbekovning asarlari zamin bo'ldi.

U dramaturg sifatida xalq hayoti muammolarini, jamiyatda yuz bergan o'zgarishlarni tasvirlab, unga o'zining munosabatini ham ayta oldi. O'z tafakkuri bilan o'zbek dramaturgiyasi ufqlarini kengaytirdi va uning rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatgani qayd etildi. "Dramalarning eng xarakterli tomoni shundaki, u nasrda ko'p kuzatilgan kitobiy tildan jonli so'zlashuv tiliga yaqinligi bilan ajralib turadi. Bu hol tomoshabin bilan qahramon o'rtasidagi masofani kamaytiradi, ko'pincha birlashtirib ham yuboradi. Shu sababdan ham drama tiliga xalqning og'zaki nutqining tovlanishlari turlicha kirib boradi. Buni yaxshi bilgan O'lmas Umarbekov bayonchilikdan qochishga urinadi" [2,17].

Yozuvchining shu iqtidorini G'afur G'ulom ham e'tirof etib, uning safsatadan, bayonchilikdan, sustlikdan yiroqligi va kam gapirib, ko'p harakat qilishi kabi yuqori bahosi ham keltirilgan. Olimning ta'kidicha, O'lmas Umarbekov dastlab qalamini hikoya va qissada charxlab olgan. Shuning uchun dramaturgiyaga dalil qadam bilan kirib kelgan. Uning "Bo'ronli yillar" dramasi chin vatanparvarlik talqini, "Sud" dramasi inson fojiasi, "Oqar suvlar" dramasi ikki insonning munosabati, jamiyatdagi nomardlik, qo'rqqoqlik illatlari fosh etiladi. O'lmas Umarbekov dramalarida poklik, insoniylik, ma'naviy-axloqiy mavzular birinchi o'rinda turadi. Hafiz Abdusamatovning tahlillariga ko'ra, uning "Komissiya" dramasi dramaturg ijodida yangi davr boshlanganidan dalolat beradi. Asar yangicha bo'yoqlar, hayotiy munosabatlar, eskicha masalalarga yangicha qarashlar bilan javob berishi, qahramonlar tuyg'ulari yozuvchining qalb prizmasidan o'tishi, dramatik holatlar satirik bo'yoqlar bilan almashinishi yaqqol aks etdi. Uning "Qiyomat qarz" dramasi ijobiy inson obrazi gavdalanadi. Dramaturg oddiy kishilardan go'zallik topa oladi. Oddiy inson tasviri orqali milliy xarakterning o'ziga xos jihatlarini ochib beradi. Yelkasini tog'day bosib turgan qarzdan qutulishni istagan oddiy qahramon holati yorqin ifodalab beriladi. Olimning fikricha, O'lmas Umarbekov o'ziga xos uslub yaratgan. Uning dramalarida real hayotiy voqealar falsafiy mushohadalarga aylanadi. "Shoshma, quyosh" dramasi esa o'zbek ayolining yangi davrdagi murakkab hayoti, uning porloq kelajagini yoritish maqsad qilindi. "Kuzning birinchi

kuni” dramasida ota va bola munosabati yangicha tarzda ifodalanadi. Bolaning kelajagi va uning inson bo‘lib yetishishi uchun yoshlikdan zamin yaratish kerakligi dramaning mazmunini tashkil etadi. “Arizasiga ko‘ra” dramasida esa, insonlarni e‘zozlash, insonning qadr-qimmatini yuqoriga ko‘tarish, haqqoniy xulosalar chiqarish kabi jihatlar e‘tiborga olinadi. “Kurort” nomli pyesasida esa rahbarlik lavozimiga tayinlangan va uni egallagan ikki inson taqdiri tasvirlanadi. Xalqning istagi va qarashlari jamiyatda qadrlanishini xohlagan dramaturg ikki qahramon xarakteri o‘z maqsadlari va g‘oyalarini singdiradi. Olimning ta‘kidicha, yozuvchi haqiqat g‘alabasini madh etadi. Xalq va davlat mulkiga chang solayotgan, nopok vijdonli mansabdorlarga qahramonlar orqali murojaat etadi. “O‘lmas Umarbekovning pyesalari insonning o‘zligini anglashga, o‘z qadriga yetishga undashi, milliy urf-odatlarimizning hurmatini saqlashga chaqirishi bilan ham ibratlidir... San’atkorimiz adabiy merosining muhim omillaridan yana biri shundan iboratki, u insonlarni qanday ekanligini ko‘rsatish bilan kifoyalanib qolmasdan, qanday bo‘lishlari lozimligini ham ifodalab, kelajakka yangicha nigoh tashlashni o‘rgatadi”. Shuningdek, H.Abdusamadov dramaturgning o‘ziga xosligini voqelikning milliy va umuminsoniy muammolar sintezi nuqtai nazaridan talqin etishida, deb belgilaydi.

### NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Tanqidchi Abdulla Qahhor dramalarini ham tahlil qilgan. “A.Qahhor pyesasining xanjarday tig‘i faqat oiladagi yaramas kishilar – “Og‘riq tishlar”gagina emas, shuningdek, xalq xo‘jaligining har bir sohasidagi jarohatlarga, qoloqlarga, nuqsonlarga qarshi qaratilgandir. Shunga o‘xshash “Yangi yer”ning ham g‘oyaviy yo‘nalishi faqat qishloqda uchragan nuqsonlarni yo‘qotishgagina qaratilib qolmay, fosh qilish quvvati bilan keng ko‘lam kasb etgan. “Tobutdan tovush” komediyasining qiymati borgan sari oshib bormoqda. Mazkur asar poraxo‘rlarga qarshi otilgan o‘qday xizmat qilmoqda. Bu esa A.Qahhor dramaturgiyasining katta badiiy kuchi, obrazlarining hayotiyliigi va haqqoniyligidan dalolatdir. Ustoz san’atkor A.Qahhor dramalari jasorat va badiiy mahorat maktabi sifatida hamisha zamon xizmatidadir. Ular umrboqiy asarlardir” [3.]. Ilhom G‘anievning “Fitrat dramalari poetikasi” mavzusidagi tadqiqoti [4,282.] dramaturgiya bo‘yicha olib borilgan katta ilmiy manba bo‘ldi. Tadqiqotda Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon”, “Chin sevish”, “Ro‘zalar”, “Shaytonning tangriga isyoni” dramalarida qahramon tili, personaj nutqining individualligi, so‘z qo‘llash mahorati kabi masalalar tadqiq etilgan. Olim tahlillarida dramalarning janrlarini ham belgilab bergan. “Abulfayzxon”ni psixologik fojia – tragediya, “Chin sevish” va “Hind ixtilochilari”ni lirik drama – dilogiya, “Arslon” – psixologik drama, “Ro‘zalar” – tragikomediya, “Shaytonning tangriga isyoni” – she‘riy fojia. Shuningdek, Fitrat dramalarni sahnaviyiligiga ko‘ra uch katta guruhga ajratdi:

1. Aynan o‘z davrida sahnalashtirish uchun mo‘ljallangan, murakkab situatsiyalar, obrazlar, serqatlam ramziylikdan xoli bo‘lgan pesalar (“Arslon”, “Ro‘zalar”, “Vose’ qo‘zg‘oloni”).
2. Ham sahna uchun, ham mutolaa uchun mo‘ljallangan ijtimoiy-siyosiy mavzudagi, lirik yo‘nalishdagi ramziy dramalar (“Chin sevish”, “Hind ixtilochilari”).
3. Serqatlam ramziylik bilan birga kuchli falsafiy yukka ega bo‘lgan, qayta-qayta o‘qish orqali turli ma‘no qirralari inkishof etib boriladigan pyesalar (“Abulfayzxon”, “Shaytonning tangriga isyoni”).

Shuningdek, tadqiqotda Fitrat dramalarida makon va zamon muammosi, badiiy san’atlardan foydalanish mahorati, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan keltirilgan misollar, nutq va uslub, Fitratning til boyligi ham chuqur tahlil qilingan. Umuman olganda, tadqiqot dramaturgiya sohasi bo‘yicha mustaqillik yillarida yaratilgan eng yaxshi ilmiy ishlardan biridir. Shu yo‘nalishdagi tadqiqotlardan yana biri Ibodatxon Rustamovning “O‘zbek dramaturgiyasi poetikasi” nomli monografiyasi [5,100]dir. Unda drama janrining o‘ziga xos xususiyatlari, psixologik tasvir, dramada konflikt ko‘rinishlari, xarakter kabi masalalarga e‘tibor qaratilgan. Nazariy qarashlar Sharof Boshbekov, O‘lmas Umarbekov, Abduqahhor Ibrohim asarlari misolida dalillangan. Shuningdek, Manzura Omonovning “Izzat Sultonning so‘nggi yillar dramaturgiyasida zamon va qahramon kontseptsiyasi”, Gulabza Qarshievaning “Hoji Muin Shukrullo dramaturgiyasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyalarning dramaturgiya erishilgan jiddiy tadqiqotlar va katta yutuqlar deyish mumkin.

Manzura Omonovning tadqiqotida esa Izzat Sulton dramalari keng mundarija asosida o‘rganildi. Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida milliy istiqloq g‘oyalarining talqin etilishi va uning dramaturg asarlarida akslanishi, uning 90-yillardagi dramalari badiiyati kabi masalalar tadqiq

## ADABIYOTSHUNOSLIK

etiladi. Shuningdek, I.Sulton dramalarida mustaqillikning xalq uchun bergan imkoniyatlari, jamiyat va xalq hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, inson ruhiyatidagi o'zgachalik, umuman, dramaturg asarlari orqali mustaqillik davri dramaturgiyasining yetakchi g'oyasi ifodalab berilganligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Gulabza Qarshievaning tadqiqotida jadidchilik adabiyoti vakili Hoji Muin dramaturgiyasi xususida so'z yuritadi. Bu o'rinda jadid dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, H.Muin dramaturgiyasida ma'rifat va jaholat talqini, xarakter yaratish mahorati, ayollar obrazining tasvirlanishi keng yoritiladi. Dramaturgiya sohasida o'zining ustozlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat ekani, uning dramalarida ijtimoiy-siyosiy hayotning dolzarb mavzulari qalamga olingani, birinchilardan bo'lib ayollarni bosh obraz sifatida dramaturgiyaga olib kiritgani, u yangicha obraz va talqinlar yaratilgani hamda chinakam novator ekanini ilmiy asoslaydi. Umuman, tadqiqotda Hoji Muinning o'zbek dramaturgiyasi shakllanishi va rivojida munosib o'rni borligini ko'rsatishga harakat qildi.

V.Ahmedovanning "Mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida davr va shaxs fojiasining yangicha talqinlari" mavzusidagi dissertatsiyasida mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasining taraqqiyot tamoyillari, davr va shaxs fojiasiga xos yangicha talqinlar xususida muayyan xulosalar beriladi. Tadqiqotchi mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida yangi uslubiy yo'nalishlar va janriy shakllar rivoji uchun imkon bergan quyidagi omillarni qayd etadi:

1. Ijtimoiy-siyosiy tuzumning o'zgarishi erkin ijod qilish imkonini berdi. Badiiy ijod uchun qo'yilgan majburiy metodologik to'siqlarni bartaraf qildi va milliy dramaturgiya o'zining yangi tarixini yaratishga kirishdi.

2. O'lis va yaqin milliy tarix, diniy e'tiqod, shayx-valiylar, ulug' allomalar, asossiz qoralangan shaxslar qismati, azaliy urf-odat va an'analar bilan bir qatorda zamondosh ong-shuuri, ko'ngil iqlimida kechayotgan po'rtanalarni dramaga ko'chirish, sahna va kinoga olib chiqish imkoni yuzaga keldi.

3. Dramaturgiya va teatrda yangi zamon ruhi kirib keldi. Erkin va ozod Vatanga muhabbat mavzusi yetakchi g'oyaga, millatni uyg'otish va shu g'oya atrofida jipslashtirish, kitobxon (tomoshabin)ni halollik, poklik, jasurlik, fidoyilikka undash, falsafiy fikrlashga o'rgatish, fikr odami orqali o'zbekning asl qiyofasini namoyon etish bosh maqsadga aylandi. Tadqiqotchining tasnifi mustaqillik dramaturgiyasi haqida umumiy tasavvur berishi bilan alohida ahamiyatga ega.

N.Tursunovanning "Hozirgi o'zbek dramaturgiyasida folklor stilizatsiyasi" nomli dissertatsiyasida Erkin Xushvaqto'vning "Chimildiq" dramasi qo'llanilgan nikoh to'yi marosimi bilan bog'liq folklor an'analari tadqiq etilgan. Uningcha, "Chimildiq" dramasi o'zbek xalqi urf-odatlarida kuzatiladigan, ota-ona roziligi bilan turmush qurgan va bir-birini tanimaydigan ikki yoshning qalb iztiroblari ochib berilgan. "Istiqlol davri o'zbek dramaturgiyasining badiiy matnida faol qo'llanilgan milliy urf-odat, marosim, rasm-rusum, qadimiy ritual va ishonch-e'tiqodlarga aloqador etnografik detallar, an'naviy qo'shiqchilik elementlari, aytim va alomatlardan iborat folklorizmlar o'zining mohiyatiga ko'ra etnopoetik folklorizmlar hisoblanadi... uning istiqlol davri o'zbek dramaturgiyasidagi dastlabki namunalar E.Xushvaqto'vning "Chimildiq", "Qirmizi olma" asarlarida o'z ifodasini topgan". Dramadagi Momo obraziga e'tibor qaratar ekan, chimildiqning muqaddasligi momo tilidan aytilishi, kuyov tomonidan berilgan hadyalarning meros ekanligi va o'zbek urf-odatlarining uqdirilishi momo obrazining mifologik tasavvurlaridan degan xulosalarni beradi. Shuningdek, dramadagi pichoq va uzukning keltirilishi ham folklorga borib taqalishini ta'kidlaydi. Pichoq o'g'il farzand, uzuk qiz farzand tilashning timsoliy belgisi sifatida ko'radi. E.Xushvaqto'vning "Chimildiq" komediyasi o'zbek nikoh to'yi marosimi bilan bog'liq bo'lgan folklor namunasi ekani misollar orqali isbotlanadi.

### XULOSA

Ushbu dramada o'zbek xalqining milliyligi, urf-odatlari, marosimlar bilan bog'liq voqealar keltirilgan. Ikki notanish qalbning kutilmagan uchrashuvi hamda ziddiyati yaqqol ochib berilgan. Drama haqida ma'lum tadqiqotlarda qisman munosabat bildirilgan. Shunga qaramay, komediya to'laqonli o'rganilmagan. Aslida, ushbu asarda o'zbek qizlarning har qanday qismatga rozi bo'lishi, ko'ngil istaklari hech qachon inobatga olinmasligi, vaqt o'tib taqdiridan mamnun bo'lishi, behad ko'nikuvchanligi kulgu ostiga olingan.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Nazarov B, Rasulov A, Qahramonov Q, Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Cho'lpon, 2012. – B.371.
2. Абдусаматов Х. Шошма, кувеш. Янги аср авлоди, 2004. – Б.17.
3. Абдусаматов Х. “Янги ер”дан бошланган шухрат Ошкоралик ва талабчанлик // Жахон адабиёти. – 2007, № 9. – <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/>.
4. Ганиев Илхом. Фитрат драмалари поэтикаси. – Toshkent: “Фан” нашриёти, 2005. – 282 б.
5. Рустамова И. Ўзбек драматургияси поэтикаси. – Фаргона: ФДУ нусха кўпайтириш бўлими, 2023. – 100 б.